



GEOGRAPHICAL VIEW OF GARDENING IN SURKHANDARYA REGION

Abdukholiq F. Rakhmatov

Lecturer

Termez State University

Termez, Uzbekistan

Asilabonu Q. Alimardonova

Student

Termez State University

Termez, Uzbekistan

Shakhnoza Z. Ortiqova

Student

Termez State University

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Favorable natural geographical conditions, agricultural products, horticultural products, citrus fruits, horticultural processing, intensive gardens, foothills, tree seedlings, farms.

Received: 25.03.22

Accepted: 27.03.22

Published: 29.03.22

Abstract: In Surkhandarya region, agriculture (cotton, wheat, viticulture, subtropical fruits) is well developed on the basis of favorable natural geographical conditions and labor resources. However, there is no balance between the processing industry and the production of agricultural products. This is due, firstly, to the fact that ginneries don't work at full capacity due to the decline in cotton production, secondly, to the lack of industrial enterprises processing fruits, grapes and other products. The article focuses on the field of horticulture in Surkhandarya region, highlights the achievements and shortcomings of this sector, and provides suggestions and recommendations.

SURXONDARYO VILOYATI BOG'DORCHILIGINING GEOGRAFIK KO'RINISHI**Abduxoliq F. Raxmatov***O'qituvchi**Termiz davlat universiteti**Termiz, O'zbekiston***Asilabonu Q. Alimardonova***Talaba**Termiz davlat universiteti**Termiz, O'zbekiston***Shaxnoza Z. Ortiqova***Talaba**Termiz davlat universiteti**Termiz, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Qulay tabiiy geografik sharoit, qishloq xo'jalik mahsulotlari, bog'dorchilik mahsulotlari, sitrus mevalar, bog'dorchilik mahsulotlarini qayta ishlash, intinsiv bog'lar, tog' oldi tumanlar, daraxt ko'chatlari, fermer xo'jaliklari.

Annotatsiya: Surxondaryo viloyatida qulay tabiiy geografik sharoitlar va mehnat resurslari asosida qishloq xo'jaligi (paxtachilik, bug'doy yetishtirish, uzumchilik, subtropik mevalar yetishtirish) yaxshi rivojlangan. Biroq, qayta ishlash sanoati bilan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish o'rtasida mutanosiblik mavjud emas. Bu, birinchidan, paxta hosilining kamayishi tufayli paxta tozalash zavodlarining to'la quvvatda ishlamasligi bo'lsa, ikkinchidan, meva, uzum va boshqa mahsulotlarni qayta ishlovchi sanoat korxonalarining yetishmasligidir. Maqolada Surxondaryo viloyatidagi bog'dorchilik sohasiga qaratilayotgan e'tibor, ushbu sohaning yutuq va kamchiliklari yoritilib, taklif va tavsiyalar berilgan.

ГЕОГРАФИЧЕСКИЙ ВИД САДОВОДСТВА В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ**Абдухолик Ф. Рахматов**

Преподаватель

Термезский государственный университет

Термез, Узбекистан

Асилабону К. Алимардонова

Студент

Термезский государственный университет

Термез, Узбекистан

Шахноза З. Ортикова

Студент

Термезский государственный университет

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Благоприятные природно-географические условия, продукция сельского хозяйства, продукция садоводства, цитрусовые, плодоовощная переработка, интенсивные сады, предгорья, саженцы деревьев, хозяйства.

Аннотация: В Сурхандарьинской области хорошо развито сельское хозяйство (хлопчатник, пшеница, виноградарство, субтропические фрукты) на основе благоприятных природно-географических условий и трудовых ресурсов. Однако баланс между обрабатывающей промышленностью и производством сельскохозяйственной продукции отсутствует. Это связано, во-первых, с тем, что хлопкоочистительные заводы работают не на полную мощность из-за спада производства хлопка, во-вторых, с отсутствием промышленных предприятий по переработке фруктов, винограда и другой продукции. В статье основное внимание уделяется сфере садоводства Сурхандарьинской области, выделяются достижения и недостатки этой отрасли, даются предложения и рекомендации.

KIRISH

Surxondaryo viloyatida qulay tabiiy geografik sharoitlar va mehnat resurslari asosida qishloq xo`jaligi (paxtachilik, bug`doy yetishtirish, uzumchilik, subtropik mevalar yetishtirish) yaxshi rivojlangan. Biroq, qayta ishlash sanoati bilan qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtirish o`rtasida mutanosiblik mavjud emas. Bu, birinchidan, paxta hosilining kamayishi tufayli paxta tozalash zavodlarining to`la quvvatda ishlamasligi bo`lsa, ikkinchidan, meva, uzum va boshqa mahsulotlarni qayta ishlovchi sanoat korxonalarining yetishmasligidir. Maqolada Surxondaryo viloyatidagi bog`dorchilik sohasiga qaratilayotgan e`tibor, ushbu sohaning yutuq va kamchiliklari yoritilib, taklif va tavsiyalar berilgan.

ASOSIY QISM

Viloyatda bog'dorchilik maxsulotlarini qayta ishlash ham viloyatning rivojlanmayotgan sohalaridan biri hisoblangan bog'dorchilik maxsulotlarini qayta ishlash va xususan sitrus mevalarni o'zimizda qayta ishlash orqali viloyat sanoat maxsulotlari ulishini oshirish muhim sanaladi. Bu borada viloyat iqtisodiyotining rivojlanishiga hamda bog'zorchilikning rivojlanishiga birqancha omillar ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi:

- viloyatning geografik o'rni;
- yeterli tabiiy sharoit, yer suv bilan yaxshi ta'minlanganligi;
- tashqi bozorning yaqinligi (viloyat 3 ta xorijiy davlat bilan chegaradosh);
- demografik vaziyatning qulayligi.

Ayni vaqtda mintaqada bog'dorchilik maxsulotlarini qayta ishlashga va ularni rivojlanishiga ayrim salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham mavjud. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin;

-aksariyat bog'dorchilik fermer xo'jaliklarining tog'li va tog' oldi hududlarda joylashganligi;

- intensiv bog'larning kamligi;
- bog'dorchilik maxsulotlarini qayta ishlaydigan zavod va korxonalarining kamligi;

Viloyat iqtisodiyotini yaqin kelajakda barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sanoatiga bog'liq. Viloyat qishloq xo'jaligi 1960-1990 yillar davomida yangi yerlarni o'zlashtirish hamda chorvachilik sohasida chorva mollar bosh sonini oshirish evaziga, ya'ni ekstensiv tarzda rivojlanib bordi. Yaqin kelajakda esa qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish, dehqonchilikda va bog'dorchilik mahsuldorligini intensiv tarzda oshirib borish nazarda tutiladi.

Viloyatning hozirgi eksport tarkibini asosan paxta tolasi tashkil etadi. Ayni vaqtda bu yerda paxta va ipak xom ashyosi yetarli bo'lsada, uni qayta ishlash negizida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish sust rivojlangan. Bu sohada qo'shimcha tarmoq sifatida viloyat iqlimidan kelib chiqqan holda zamonaviy sitrus bog'lar tashkil etish yangi daraxt va ekin turlarini joriy qilish nazarda tutilgan.

1-jadval

Surxondaryo viloyatidagi bog'dorchilik bilan shug'ullanadigan fermerlar va ularning yer maydoni

Tuman nomlari	Fermerlar soni	Umumiy maydoni ga	Shu jumladan, bog'zorlar ga
Angor	82	1053	474
Bandixon	19	235	72
Boysun	78	4070	329

Denov	95	1450	520
Jarqo'rg'on	56	924	409
Qiziriq	43	457	142
Qumqo'rg'on	44	467	123
Muzrabot	34	409	202
Oltinsoy	74	1292	377
Sariosiyo	142	3970	579
Termiz	70	604	230
Uzun	100	1072	441
Sherobod	174	3274	730
Sho'rchi	91	1357	483
Termiz sh.	1	10	4
JAMI:	1101	18725	4471

Izoh: Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma'lumoti bo'yicha tuzilgan.

Surxondaryo viloyatida bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi 1101 ta fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda (01.03.2020 y). Bog'dorchilik bilan tog' oldi tumanlar xususan Sho'rchi, Denov, Qumqo'rg'on tumanlarida ko'proq yetishtirilishini ko'rishimiz mumkin, ayniqsa, bog'dorchilikka Denov tumani anchayin iqtisoslashganini ko'rishimiz mumkin, ushbu tumanda 100 ga yaqin bog'dorchilik fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning aksari bog'dorchilik bilan shug'ilanadi.

Ushbu tumanda viloyatda yetishtiriladigan sitrus mevalarning (limon, apelsin, mandarin, xurmo, banan) daraxt ko'chatlari va mevalarini barcha tumanlarga va qo'shni viloyatlarga ham yetkazib bermoqda, viloyatimizning janubiy tumanlarida Qiziriq, Muzrabod, Angor tumanlarida tuprog'i sho'rtob bo'lganligi tufayli, hattoki, ko'p yillik yirik daraxtlarni ham uchratish qiyin, bunga asosiy sabab qilib yer osti suvlarining yaqinligi va ushbu suvlarning sho'rqligini hamda ob-havo inijliklari sabab bo'ladi.

Surxondaryo viloyatida bundan tashqari uzumchilik bilan ham shug'ullanuvchi 465 ta fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatib kelmoqda, ushbu fermer xo'jaliklariga 5652 ga yer ajratilgan bo'lib, ularning aksari Oltinsoy 400 ta, Jarqo'rg'on 16 ta, Qiziriq 12 ta va boshqa tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Ko'rib turganimizdek, bu soha bo'yicha Oltinsoy tumani mutloq yetakchi sanaladi ushbu tumanda uzumchilik fermer xo'jaliklari uchun ajratilgan yerlar 4661 ga ni tashkil qiladi.

Surxondaryo vohasida qoriq va bo'z yerlarni o'zlashtirish maqsadida bo'glar va ekinzor maydonlari hosil qilinmoqda. Hozirgi kunda viloyatning umumiy yer maydoni 289 ming gektarni tashkil qiladi. Shundan yangi intensiv bog'lar 36 ming gektarni va xosilli maydon 254 ming gektarni tashkil qiladi va bu bog'lardan kutilayotgan yalpi hosil miqdori 16.5 tonnaga teng. Bundan tashqari aholi tomorqa yerlari 198 g fermer va qishloq xo'jaligi yerlari 91 ming g

mavjud. Quydagi (2-jadvalda), ko'rinib turibdiki viloyat miqyosida eng katta maydonni Oltinsoy tumani 67,6 g egallagan va bu tomondan kutilayotgan yalpi hosili miqdori 3,7 tonnaga teng.

Bundan keying o'rinlarni Sariosiyo 44,5, Sho'rchi 41,1, Termiz 30,8, tumanlari tashkil qiladi. Bu tumanlarda iqlim sharoiti qulayligi janubiy surxon suv ombori va Surxon daryosining yaqinligi uchun suv bilan yaxshi taminlanganligi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi, bu esa hosildorlikning oshishini taminlaydi. Eng past ko'rsatgichlarni termiz shahri 1,0 g ni tashkil qiladi. Undan keying o'rinlarni katta bo'lmagan farq bilan Qiziriq 2,5 g, Sherobod 3,0 g, Bandixon 3,3 g tumanlari egallaydi. Bu tumanlarda asosiy muammo suv tanqisligi va iqlimning quruqligi hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki viloyatda yangi turdagi bog'larni tashkil qilishni ko'paytirish xususan Zaytun bog'larni kirib kelishini ko'paytirish hamda uni qayta ishlashni rivojlantirish, zaytuning mevasi, bargi, hattoki tanasi ham inson salomatligi uchun foydali. Hozirgi kunda Jarqo'rg'on tumanida 6 g yer maydonga zaytun ko'chatlari ekilgan, takidlash joizki Oltinsoy tumanida 35 so'tix joydan 2021 yil oxirida 200 kg maxsulot olish rejalashtirilgan, bundan ko'rinib turibdiki viloyatimiz sitrus va tropik maxsulotlarni yetishtirish samaraliroq natija beradi.

2-jadval

Surxondaryo viloyati tumanlarida mavjud subtropik mevali bog'lar bo'yicha

MA'LUMOT

№	Tumanlar nomi	Jami			Shundan		kutilayotgan hosil yalpi hosil tonna
		Jami maydon, ga	yosh bog'lar, ga	Hosilli maydon, ga	f/x va qishloq xo'jaligi korxonalarida, gektar	aholi tomorqalarida gektar	
1	Termiz shaxri	1,0	0,2	0,9		1,0	56
2	Angor	7,3	0,4	6,9	5	2,3	451
3	Bandixon	3,3	0,3	3,0	2,1	1,2	195
4	Boysun	3,7	0,6	3,1	0,3	3,4	199
5	Denov	14,0	2,0	12,0	5,5	8,5	777
6	Jarqo'rg'on	31,3	5,1	26,2	0,9	30,4	1706
7	Qiziriq	2,5	0,2	2,3		2,5	148
8	Qumqo'rg'on	30,4	4,9	25,5		30,4	1659
9	Muzrabod	4,9	1,0	3,8	0,2	4,7	248
10	Oltinsoy	67,6	10,0	57,6	6	61,6	3744
11	Sariosiyo	44,5	5,7	38,8	21,5	23,0	2523
12	Termiz tumani	30,8	1,0	29,9	25,0	5,8	1941
13	Uzun	4,0	0,9	3,1	0,2	3,8	202
14	Sherobod	3,0	0,3	2,7		3,0	174

15	Sho'rchi	41,1	2,9	38,2	24,4	16,7	2480
	Viloyat jami	289	36	254	91	198	16504

Izoh: Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma'lumoti bo'yicha tuzilgan.

Surxondaryo viloyati respublikada limon, apilsin, mandarin maxsulotlarini yetishtirishda yetakchilar qatorida turadi. Ushbu maxsulotlarni viloyatimiz yetishtiradi va sotadi, vaholanki ularni qayta ishlasak olinadigan daromat bundan ham ko'proq bo'ladi. Limonli kundalik suv ichish (qorin bo'shlig'iga, nonushta oldidan 20 daqiqa oldin) ichish immun tizimini mustahkamlash, yurak funktsiyasini va terining ko'rinishini yaxshilash, ovqat hazm qilish jarayonlarini normallashtirishi mumkinligiga ishoniladi. Limonli suv tomoq og'rig'i bilan og'riydi, og'iz bo'shlig'i esa shilliq qavatning yallig'lanishi bilan tavsiya etiladi. Sochni terining shunday yog'li sochlari bilan yuvish foydalidir, chunki u yog 'bezlarini ishlashini yaxshilaydi, sochlar ipak va porloq bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki tibbiyot sohasida ham situris mevalardan foydalanish mumkun. Viloyatimizdagi qulay agroiqilimiy resurslardan munosib foydalanishimiz xalqimiz uchun foydali xisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A. A. Solyev "Qishloq xo'jaligi geografiyasi" Toshkent – 2002
2. Abdunazarov. H. M., Niyozov. X. M. "ISSUES OF ECONOMIC AND SOCIAL DEVELOPMENT OF KUMKURGAN DISTRICT", Middle scientific bulletin, vol 13, june 2021
3. Allanov Q.A., & Choriev A.Q. (2021). Effects on the Location and Development of the Production Forces of the South Surkhan Reservoir. Middle European Scientific Bulletin, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.495>.
4. Rakhmatov Abdukholiq Farkhodovich "Development of Fishing Farms in River and River Areas of Surkhandarya Region" Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 17 Oct 2021
5. www.agroinspeksiya.uz